XIVA XONLARNING SHAXSIY HAYOTI VA MA'NAVIY MUHITI (QO'NG'IROTLAR SULOLASI MISOLIDA)

Nazokat Axmedova Farhod qizi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat tibbiyot instituti kengash kotibi
E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19690535

Annotatsiya. *Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasi davrida XVIII–XIX asrlarda kuchli siyosiy va madaniy markazga aylangan. Bu davrda xonlarning shaxsiy hayoti nafaqat saroy ichidagi hayot, balki jamiyatning ma'naviy muhitiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqolada xonlarning shaxsiy hayoti va ma'naviy muhiti masalalari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar*: Qo'ng'irotlar sulolasi, adabiy muhit, ma'naviy muhit, madaniy hayot, maqom san'ati, islom huquqi.*

Annotation.*The Khiva Khanate became a powerful political and cultural center during the Kungur dynasty in the 18th–19th centuries. During this period, the personal lives of the khans had a great influence not only on life within the palace, but also on the spiritual environment of society. This article analyzes the issues of the personal lives and spiritual environment of the khans.*

Keywords: *Kungirat dynasty, literary environment, spiritual environment, cultural life, maqom art, Islamic law.*

Аннотация. *Хивское ханство стало мощным политическим и культурным центром в период правления династии Кунград в XVIII–XIX веках. В этот период личная жизнь ханов оказывала огромное влияние не только на жизнь во дворце, но и на духовную атмосферу общества. В данной статье анализируются вопросы личной жизни и духовной среды ханов.*

Ключевые слова: *династия Кунгират, литературная среда, духовная среда, культурная жизнь, искусство маком, исламское право.*

Kirish. Xiva xonlarining shaxsiy va ma'naviy hayoti ko'pincha saroy doirasida kechgan, qat'iy o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida tashkil etilgan. Ularning ma'naviy hayoti nihoyatda boy va rang-barang bo'lgan. Xonlar o'zlarini islom dinining himoyachilari deb hisoblashgan va shariat qonunlari xonlik hayotida muhim o'rin tutgan. Buni hukmdorlar tomonidan qurilgan ko'plab diniy inshootlar ya'ni masjidlar, madrasalar, maqbaralar orqali ko'rish mumkin. Xiva xonlari ma'naviy-madaniy hayotining asosiy xususiyatlari quyidagilar: 1) Adabiy muhit taraqqiy qilganligi ya'ni xonlar, o'zlari ham she'rlar yozgan, shoir-u olimlarni qo'llab-quvvatlagan. 2)Maqom san'ati taraqqiyoti: Xorazm maqomlari shakllangan, nota yozuvi (Xorazm chizig'i) joriy etilgan. 3)Ma'rifat va matbaachilikning yuksalishi: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, ayniqsa Feruz davrida, Xivada bosmaxona tashkil etilgan. 4)Islomiy qadriyatlar taraqqiyoti: Xonlik boshqaruvi islom huquqi asosida olib borilgan va xonlar diniy rahbarlar bilan yaqin bo'lgan.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Xiva xonlarining ma’naviy hayoti asosan madaniyat, san’at va adabiyotga e’tibor berilishi bilan xarakterlanadi, bu esa xonlikning o‘ziga xos madaniy merosini yanada boyishiga sabab bo‘lgan. Tarixshunoslik va adabiyot, tarjima san’ati yuksak darajada taraqqiy etgan. Saroyda va saroydan tashqarida xon homiyligi ostida ko‘plab shoirlar, olimlar va xattot, tarjimonlar ijod qilgan. Musiqa va she’riyat saroy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Xiva xonlari siyosiy jihatdan qat’iy hukmdor, bo‘lish bilan birga ma’naviy jihatdan diniy e’tiqodga, ilm-fanga mehr qo‘ygan shaxslar hisoblanishgan. Ularning dunyoqarashi va ma’naviy muhiti yuksalishiga islomiy qadriyatlar, saroy madaniyati, tarixiy va siyosiy tajriba kabi omillar ta’sir ko‘rsatgan deyish mumkin.

Xiva taxtida o‘tirgan xonlarning ayrimlari jangovor va bunyodkorlik qobiliyatlarga shuningdek alohida ilmiy iqtidor va xususiyatlarga ega bo‘lganlar. Xonlar orasida tarixchilar va she’riyat ixlosmandlari ham bo‘lganligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Xonlar orasida oqil va odil, islom dinga taqvodor va valiy xislatlarga xos bo‘lganlari ham bor bo‘lgan. Xatto ayrimlari olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan janglarda g‘olib bo‘lib, jangovor va harbiy iqtidorlarga ega bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalari. Quyida ayrim Xiva xonlarining alohida ilmiy iqtidor va jangovor xususiyatlari haqida manbalarga tayangan holda keltirib o‘tamiz. 1804-yilda xonlikda qo‘ng‘irotlar sulolasiga asos solgan Eltuzarxonning o‘zi qilich yasash bilan shug‘ullanadigan temirchi bo‘lgan. O‘sha vaqtda eng a’lo tur qilich tayyorlash uchun eng avvalo po‘lat parchalarini tovuqlarga maydalab berishgan[1,b.61]. Uning hukmronligi davrida xonlik har tomonlama taraqqiy qilgan, ilm-ma’rifat va adabiyot rivojlangan, shoirlar ko‘paygan, saroyda adabiy muhit shakllangan. Shu davrda ijod qilgan Ziyrak, Mirzo Masiho, Dilovarxo‘ja, Mavlono Kiromiy, Ravnak, Roqim, Nishotiy, Mavlono Junaydullo kabi shoirlar, tarixchilar she’riyat kechalarini, latifago‘ylik, tavorihonlik oqshomlarini o‘tkazishi an’ana tusiga kirgan[2,b.19]. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) – tarixiy va adabiy manbalarda uning ham bir qator she’rlar yozganligi aytilgan. Jumladan, “Muntaxab at-tavorix” nomli maqolada qayd etilishicha, xon g‘azallar ham bitgan [3], arab va fors tillarini ham puxta bilgan, ilm ahliga homiylik qilgan. Adabiyotni sevgan, shoirlar bilan mushoira kechalarini tashkil etgan, bu mushoira kechalarini Shermuhammad Munis boshlab bergan [4]. Olloqulixon (1825-1842) – Muhammad Rahimxon I ning to‘ng‘ich o‘g‘li. Xon turli sabablar bilan dasturxonlar yozib, hayr-u ehsonlar ulashib, adabiyot va san’at ahllarining boshlarini silagan va ularga g‘amxo‘rlik qilgan, o‘n sakkiz yillik hukmronligi davrida xivada ko‘plab me’moriy obidalar tiklangan. Xorazmda koshinchilikning yuksalishiga katta hissa qo‘shgan[1,b.61]. Saroyga tez-tez san’atkorlarni chorlab, musiqa va g‘azal oqshomlarini uyushtiradigan davlat rahbari

Said Muhammadxon (1856-1864) bazmu jamshidlarda oila davrasida xonning o‘zi ham dutor va g‘ijjak chalib, davraga fayz kiritilganligi haqida ma’lumotlar bor [1, b. 28]. Uning davrida xonlikda tinchlik hukm surdi, shu sababdan xalq ichida va xon saroyida musiqaga e’tibor kuchaygan. “xonning o‘zi ham dutor, g‘ijjak sozlarini chertmoqqa oshno edi. Tez-tez musiqashunoslar bilan bazm majlislari qurar edi” [5, b.11]. Komil Xorazmiy “Qissai Temuriy” asari debochasida yozishicha, she’riyatsevar “Hoqon o‘g‘li hoqon, zafar qozonuvchilar va g‘oliblar va fatx egalari otasi Sayyid Muhammad Bahodirxon sipoh va lashkar tuzishdan, raiyat va fuqarolar orasida adolat o‘rnatishdan bir lahza bo‘sh qolsa, ilgari o‘tgan shoirlar devonlarini va o‘tgan oliymiqdor sultonlar tarixini o‘qib, ko‘p vaqtini kitob o‘qishga sarflar edi. Shu asnoda har g‘azalning mazmuni va har podshohning qoida va qonunlari ilmga moyil diliga yoqsa va ma’qul bo‘lsa, shu zahoti ularni zamona shoirlari davron fozil kishilariga buyurib, unga muxammas bog‘latar va tarjima qildirar va shu bahona bilan ularga zarrin gulli kiyimlar va son - sanoqsiz naqd pul in’om etib, ularni xaloyiq orasida boshini osmonga ko‘tarib, mol - dunyoga ehtiyojini qondirardi [6, b. 91]. Muhammad Rahimxon II (1864-1910) - arab madaniyatini yuksak ravishda o‘rgangan, mashhur mumtoz adabiyot namunalarini targ‘ib qilgan hukmdor. U Atoiyni o‘ziga ustoz bilgan, katta kutubxona yig‘ib, to‘rt yuzga yaqin she’r va g‘azallar muallifi bo‘lgan. Asfandiyorxon 1910-1918 yillarda davlatni boshqargan. Bolaligidan qilich yasashga, soat tuzatishga qiziqib, xonlikda mohir usta sifatida ham dong qozonadi. U taxtga chiqmay turib Rossiya va Yevropa, sharq davlatlarini ham kezib, savdogar sifatida hurmatu e’zozga sazovor bo‘lgan. Isfandiyorxon shuningdek, Farrux taxallusi bilan ash’orlar bitgan shoir ham edi. Asfandiyor to‘ra nafaqat she’rlar balki, ajoyib g‘azallar yozgan [7, b.5]. Manbalarda keltirilishicha, Sharqshunos A.Samoylovichning nashr qilinmagan “Turkiy etyudlar” asarida ham Asfandiyor xonga maxsus fasl ajratilgan bo‘lib, unda valiahdning kitob xazinasida mavjud bo‘lgan Xolis, Mirzo, Rojiy, Ogahiy, Komil devonlariga qisqacha ta’rif berilgan va she’rlaridan namunalar keltirilgan[8, b. 204].

Xulosa. Xiva xonlarining shaxsiy hayoti saroy ichidagi va saroydan tashqari murakkab ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, kurashlar va hashamat bilan alohida ajralib turganligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, ularning ma’naviy muhiti islom dini, ilm-fan, shuningdek tasavvuf bilan boyigan bo‘lib, butun jamiyat taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Hukmdorlar nafaqat davlat boshqaruvchilari, balki ilm-fan va madaniyat homiylari sifatida ham muhim rol o‘ynagan. Xiva xonligi davridagi boy ma’naviy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bekmuhammad U. Xorazm va Xorazmliklar. – Buxoro “Durdona”. 2022. –B. 61.
2. Давлатёр Р. Оллоқулихон. – Урганч: Қувончбек-Машҳура, 2018. – Б. 19.
3. https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/248-muntaxab-at-tavarix.html.
4. Saparbayev B. Muhammad Rahimxov I (1806-1825) hukmronligi davrida Xiva xonligining mustahkamlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024- yil, № 1). https://doi.org/ 10.53885/ edinres. 2024.01.1.006.
5. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li; Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.11.
6. Qorayev Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o‘ziga xos xususiyatlari // Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. Jild: 04, Nashr: 03 | mart – 2024 .ISSN: 2181-2624. – B. 91
7. Guseynov G. Sharqdan ko‘tarilgan to‘fon. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: L.Abdrimova. – Toshkent: 2020. – B.5.
8. Xalliyeva G. XX asr Rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi.
9. Filologiya.fan.nom….diss.. – Toshkent: 2016. – B. 204.